

5. Tulakhodjaeva, M., Khodjaeva, M. (2024). Features of digitalization and ensuring transparency of accounting and audit in Uzbekistan. ACM International Conference Proceeding Series, 651–654. <http://dx.doi.org/10.1145/3508072.3508201>
6. World Bank (2024a). Business extent of disclosure index (0=less disclosure to 10=more disclosure). URL: <https://data.worldbank.org/indicator/IC.BUS.DISC.XQ?view=chart> (data accessed: 02.04.2024).
7. World Bank (2024b). Electric power transmission and distribution losses (% of output). URL: <https://data.worldbank.org/indicator/EG.ELC.LOSS.ZS?view=chart> (data accessed: 02.04.2024).
8. World Bank (2024c). Electricity production from oil, gas and coal sources (% of total). URL: <https://data.worldbank.org/indicator/EG.ELC.FOSL.ZS?view=chart> (data accessed: 02.04.2024).
9. World Bank (2024d). Renewable energy consumption (% of total final energy consumption). URL: <https://data.worldbank.org/indicator/EG.FEC.RNEW.ZS?view=chart> (data accessed: 02.04.2024).
10. Президент Республики Узбекистан (2024). Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019–2030 годов». URL: <https://lex.uz/docs/4539506> (data accessed: 02.04.2024).



PANDEMIYA DAVRIDA MOLIYAVIY BOZORNING BARQARORLIGI: O'TMISHDAGI TAJRIBALARDAN XULOSALAR VA KELGUSIDAGI TAYYORGARLIK

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a24

Kuvatova Oliya Sheraliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya kafedrasi o'qituvchisi
Husenov Muhriddin Bahriiddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Moliyaviy sektorlar jahon va milliy iqtisodiyotda eng muhim rol o'ynaydi, ammo ular kutilmagan paytda yuzaga keladigan pandemiya holatlari natijasida yuzaga kelgan uzilishlarga nisbatan zaifdir. Ushbu maqolada o'tmishdagi voqeа-hodisalar xulosasi tahlillaridan kelib chiqqan holda, kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan pandemiyalarga tayyorgarlikni oshirish zarurligi tasvirlanadi. Dunyoda oldin bo'lib o'tgan pandemiyalar (COVID-19, SARS)ni tahlil qilgan holda moliyaviy institutlar va investorlarning tajribalari tahlillari o'rGANILADI hamda bu strategiyalarni O'zbekistonga qo'llash chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pandemiya, COVID-19, moliyaviy institutlar, investitsiyalar, iqtisodiy barqarorlik, IT.

СТАБИЛЬНОСТЬ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В ВОВРЕМЯ ПАНДЕМИИ: ВЫВОДЫ ИЗ ПРОШЛОГО ОПЫТА И ГОТОВНОСТЬ К БУДУЩЕМУ

Куватова Олия Шералиевна
Ташкентский государственный экономический университет
Преподаватель кафедры Финансы
Хусенов Мухридин Баҳридинович
Ташкентский Государственный Экономический Университет
Студент Финансового факультета

Аннотация. Финансовый сектор играет важнейшую роль в мировой и национальной экономике, но он уязвим к сбоям, вызванным неожиданными пандемическими ситуациями. В данной статье описывается необходимость повышения готовности к возможным будущим пандемиям на основе сводного анализа прошлых событий. Анализируя прошлые пандемии (COVID-19, SARS) в мире, изучается анализ опыта финансовых институтов и инвесторов, а также рассматриваются меры по применению этих стратегий в Узбекистане.

Ключевые слова: пандемия, COVID-19, финансовые институты, инвестиции, экономическая стабильность, IT.

FINANCIAL MARKET STABILITY IN PANDEMICS: CONCLUSIONS FROM PAST EXPERIENCES AND FUTURE PREPAREDNESS

Kuvatova Oliya Sheraliyevna

Tashkent state university of Economics

teacher of the Finance Department

Husenov Muhiddin Bahriiddinovich

Tashkent state university institute of Economics

Student of the Faculty of Finance

Abstract. Financial sectors play the most important role in global and national economies, but they are vulnerable to disruptions caused by unexpected pandemic situations. This article describes the need to improve preparedness for possible future pandemics based on the summary analysis of past events. Analyzing past pandemics (COVID-19, SARS) in the world, analyzes of the experiences of financial institutions and investors are studied, and measures to apply these strategies to Uzbekistan are considered.

Keywords: pandemic, COVID-19, financial institutions, investments, economic stability, IT.

Kirish. Tarixdan bilamizki, turli tabiat hodisalarini, yuqumli viruslar, global miqyosida ta'sirga ega o'zgarishlar insoniyatning rivojlanishi shida sezilarli tanaffus, to'xtalish qilishiga olib keladi, shuningdek, bu ta'sir iqtisodiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Moliya bozorlari insonlar orasidagi iqtisodiy munosabatlari hamda jahon pul munosabatlari, mamlakat iqtisodiy o'sishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi vazifasida eng muhim rolni bajaradi. Biroq pandemiyalar moliya munosabatlari misli ko'rilmagan darajada qiyinchiliklar keltirib chiqardi, natijada barqarorlikka keskin salbiy ta'sir qiladi. Har bir davlat bu ko'rinishdagi salbiy ta'sirlar va iqtisodiy uzilishlarga qarshi choratadbirlar qo'llashi va bularga nisbatan bardosh-lilagini oshirish eng muhim maqsadlardan biri hisoblanishi lozim.

Ushbu maqola pandemiya davrdida moliya bozorlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar va salbiy oqibatlarini tahlil qiladi va uning iqtisodiy ahamiyati o'rganilib, global va O'zbekiston miqyosidagi barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi. Bunda, asosan, COVID-19 kabi o'tmishdagi pandemiya tahlillaridan xulosalar chiqargan holda moliyaviy bozorlarning kamchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

1918-yildagi "Ispaniya grippi", 1957-yildagi "Osiyo grippi", 1968-yildagi "Gonkong Grippi" va yaqin tarix 2003-yilda "SARS (Severe acute respiratory syndrome)" epidemiyasi, COVID-19 pandemiyasi kabi tarixiy pandemiyalar moliyaviy bozorlarga o'zining o'chmas izini qoldirdi. Buning ortidan kelgan turli inqirozlar, iqtisodiy uzilishlar bozorlarda barqarorlikni sustlashtirdi, natijada aholining hukumatga nisbatan ishonchi tushish vaziyatlariga ham olib keldi.

Hozirgi, tez rivojlanayotgan davrda tahdidlar soni oshib bormoqda va bular haqida turli xil medianashrlar, mashhur shaxslar tomonidan turli xil kelgusi kutilishi mumkin bo'lgan pandemiyalar tezroq kelishi haqida ogohlantirishlar bo'lmoqda:

- Biotechnology Innovation Organization (BIO) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot va tahlillar natijasida, 2049-yilda dunyoda yangi yanada kuchli bo'lgan pandemiya bo'lishi ehtimolligi yuqori bo'lishi haqida xabar berilgandi [1] [2];

- 2022-yil 24-may kuni o'tkazilgan WEF (World Economic Forum)ning navbatdagi yig'ilishida Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) vakili Helen E.Clark, milliarder Bill Gates va boshqa tashkilot a'zolari tomonidan keyingi pandemiya yaqinligi ta'kidlab o'tilgan [3];

- Britaniyaning "The Independent" nashriining 2024-yilda chiqqan maqolasiga ko'ra, insoniyat yangi turdag'i "Disease X" virusi tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarga tayyor turish kerakligi haqida aytib o'tilgan [4].

Pandemiyalar davrida, iqtisodiy sektorlar qanchalik kuchli bo'lmasin, sezilarli ta'sirlarni boshdan kechirdi. Kutilmaganda kelgan pandemiyalarda risklar oshishi natijasida qimmatli qog'oz bozorlarida tushishlar yuzaga keldi, investorlar risklardan chetlab o'tish uchun, asosan, obligatsiyalarga urg'u qarata boshlashdi, natijada turli bozorlardagi keskin o'zgarishlar, aholi orasida tabaqlanishdagi farq sezilarli ravishda o'tdi. Agar bu o'zgarishlar nazoratdan chiqib ketsa, keyinchalik aholining hukumatga nisbatan ishonchi pasayishiga olib kelishi, keyinchalik turli ko'rinishdagi urushlargacha borishi mumkin.

Ammo bu xavf-xatarlar qanchalik jiddiy bo'lmasin, puxta qilingan moliyaviy rejalar, qarorlar orqali bu risklar va xavf-xatarlarni minimallashtirishimiz mumkin. Bunday ko'rinishdagi

kuchli strategiyalarni o'tmishda qilingan xatolar va tahlillarisiz qilish ilojsiz. Holbuki, keyingi pandemiyalar kutilayotgan ekan, bunga tayyor turish lozimligini doimo yodda tutishimiz zarur.

Adabiyotlar tahlili. Pandemiyalarning jamiyat iqtisodiy munosabatlari bo'lgan ta'siri tarixdan "nozik fan" sifatida qaralib kelinadi. Bu o'rganishlar dastlab iqtisodchi Maltus (1798) tomonidan boshlangan hamda uning "Aholi Prinsiplari" asarida turli xil kasalliklarning aholi o'sishi va iqtisodiy o'sishga bo'lgan uzoq muddatli ta'siri haqida g'oyalarni ilgari suradi [6]. Keyinchalik tarixiy voqealarni chuqurroq o'rghanish maqsadida pandemiyalar davrida bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlarni Schumpeter (1954) alohida ajratib o'rghanishni boshlaydi [7].

2010-yilga kelib, Bleakeley kasalliklar, ayniqsa, pandemiyalar davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inson kapitalidagi muammolarni mikro va makrodarajalarda o'rGANIB chiqadi [8].

Iqtisodchi M.Karlsson 2014-yilda pandemiyalarni turlarga ajratib, ularning iqtisodiy ta'sirlarini alohida o'rghanish kerakligini ta'kidlab o'tadi. Bunda u ispan grippi kabi o'lim soni kam bo'lgan kasalliklar davrida aholi orasida ishsizlik ortishi va pandemiya cho'zilgani sari aholida qashshoqlik ortishiga olib kelishi ekanligini aniqlagan. Shuningdek, viruslar yuqumlilik darajasi va cho'zilish muddatiga qarab uy xo'jaliklariga, korxonalarga zarari ortishi haqida qo'shimcha qilib o'tadi [9].

2020-yil fevral oyida COVID-19 virusi faqatgina Xitoyda avjiga chiqqan, ammo boshqa mamlakatlarga tarqalishi shubha ostida bo'lgan paytda, McKibbin va Fernando virusning tarqalishi natijasida dunyoda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy oqibatlarning ehtimolliklarini aniqlashga qaror qilishadi. Birinchi, 3 ta ehtimolliklar o'rGANILIB, faqatgina Xitoy ichida yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalar o'rGANILIB chiqadi. Bunga qo'shimcha ravishda yana 4 ta ehtimolliklar keltirib o'tilib, bu ehtimolliklarda virus avj olib, global miqyosda tarqalishida ro'y berishi mumkin bo'lgan tahlillar aks ettiriladi [10]. Bunga qo'shimcha ravishda McKibbin va Triggs ehtimolliklarni aniqlashning "G-Cubed" [11] nomli modelini tuzib chiqishadi. Modelda dunyoning rivojlangan 20 mamlakati alohida va boshqa davlatlar hududlariga qarab ajratilgan holda tahlillar olib boriladi. Bu model asosida, virusning hududda tarqalish darajasiga qarab, o'sha hududda yuz beradigan narxlardagi o'zgarishlar, ishsizlik darajasi, soliqlardagi o'zgarishlar, risk, kapital kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilini olib borish mumkin [12].

COVID-19 asoratlari yumshagandan so'ng odamlar pandemianing oqibatlari qanchalik

jiddiy bo'lishi mumkin ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lishdi. Natijada rivojlangan mamlakatlar keyingi kutilishi mumkin bo'lgan pandemiyalarga hushyorlikni oshirish chora-tadbirlarini yanada kuchaytirishni, aholi salomatligidan tashqari mamlakat iqtisodiy holatini barqaror saqlash yo'llarini qidira boshlashdi. Bu muammoga yechim sifatida Alessandro Vespiagnani yangi taklif bilan chiqadi. U yangi model ustida ishlaganini ma'lum qiladi va u o'z modeli haqida "pandemiya davridagi uning ma'lum muddatdagi jiddiylik darajasini baholab, unga qarshi kurashishga turlicha yondashish kerak, bunda strategik qarorlar qabul qilish orqali barqarorlik saqlanadi" deya ta'rif berib o'tadi [13]. Shuningdek, Vespiagnani o'z modelini "bu model pandemiya davrida qisqa muddatli moliyaviy qarorlar chiqarish uchun qo'l kelib, sog'liqni saqlash va iqtisodiyot o'rtasida muvozanatni ushlab turuvchi dastak" sifatida baholaydi. Bu modelda Vespiagnani pandemiyaning jiddiyligini baholagan holda, ma'lum turdag'i xizmatlarni to'xtatmaslik, iloji boricha sanitargigiyenik chora-tadbirlarni kuchaytirgan holda iqtisodiy sektorlarning muntazam harakatini ta'minlashga urg'u qaratgan. Ammo shu bilan birgalikda, ehtiyyotkorlikni ham yo'qotmaslik kerakligi muhim ekanligi, aks holda pandemiya jiddiy tus olishi mumkinligi haqida ham ta'kidlab o'tadi.

Tahlil va natijalar. Pandemiyalarning global iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirini birgina "COVID-19"ning misolida ko'rishimiz mumkin. Global miqyosdagi tahlillarga nazar tashlasak, 2020-yilning o'zidayoq dunyo davlatlari YaiM hajmi 6.7 foizga tushishi [14], Xalqaro valyuta jamg'armasi tashkiloti (IMF) a'zosи Gita Gopinath 2021-yil oxirida dunyo YaiM hajmi 9 trillion AQSh dollariga kamayishi haqida ma'lumot bergen [15]. Shuningdek, bu ko'rsatkich 2009-yildagi "Buyuk Depressiya"dan bir necha baravar kattaligi ekanligi aytib o'tilgan. Shuningdek, dunyodagi eng kuchli iqtisodiyotiga ega davlat hisoblangan AQShda pandemianing birinchi oyining o'zidayoq 26 millionga yaqin odam ishsiz qoldi [16]. Bularning barchasi o'z zanjir ta'sirlarini ko'rsatib, iqtisodiy sektordan torib mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi, aholining ijtimoiy farovonligi sezilarli tushganini ko'rishimiz mumkin.

Statistika va tahlillarga nazar tashlar ekanmiz, global miqyosdagi statistikalarda ham salbiy o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Jahan savdo tashkiloti (WTO) taqdim qilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, ushbu grafikni tuzishimiz mumkin:


Jahon savdo aylanmasidagi tovarlarning umumiy qiymati

Yillar, choraklarda	Global savdo tovarlarining jami import qiymati (trln. USD)	Global savdo tovarlarining jami eksport qiymati (trln, USD)
2019 [3-ch]	4.85	4.74
2019 [4-ch]	4.90	4.85
2020 [1-ch]	4.48	4.36
2020 [2-ch]	3.84	3.75
2020 [3-ch]	4.55	4.54
2020 [4-ch]	5.00	5.00
2021 [1-ch]	5.12	5.06
2021 [2-ch]	5.56	5.51

Manba: muallif tomonidan Jahon savdo tashkiloti (WTO) ma'lumotlaridan foydalanilgan holda shakllantirilgan [8].

1-jadvalda ko'rsatib o'tilganidek, 2019-yilning oxirgi choragida jahon tovarlar savdo aylanmasining importlar hajmi 4.9 trillion, eksporti esa 4.85 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. Keyingi ikki chorakda esa bu ikki ko'rsatkich ham keskin ravishda 0.6 trillionga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Bu qulashning sabablarini "Congressional Research Service" tashkiloti, mamlakatlarda

tibbiyot vositalari, dori-darmonlarning eksportlari kamaytirilib, ichki bozorlarga yo'naltirilganini va dunyoda sanoat sohasida ishlab chiqarishning sustlashganligini sabab qilib keltirib o'tgan [17]. Keyingi 2020-yilning 3-4-choraklarida bu raqamlar yana barqarorligi ta'minlanib, import va eksportlar hajmi 5 trillionga yetib, keyingi choraklarda sekin o'sishni davom ettirgan.

**1-rasm. Jahon savdo aylanmasidagi tovarlarning umumiy qiymati grafigi**

Manba: muallif tomonidan Jahon savdo tashkiloti (WTO) ma'lumotlaridan foydalanilgan holda shakllantirilgan [8].

Bu keskin o'zgarishlar o'z ta'sirini O'zbekistonga ham o'tkazdi, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan taqdim qilinib bori-ladigan yillik tahlillardan kelib chiqadigan bo'lsak, pandemiya davrida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atida pasayish bo'lganini kuzatishimiz mumkin.

O'zbekiston sharoitida jadvalda ko'rsatilgan asosiy makroko'rsatkichlarning umumiy hajmiga inflatsiya, xarajatlar va boshqa turli ta'sir qiluvchi omillar ko'pligini hisobga olgan holda, ularning o'sish sur'atlarini taqqoslash maqsadga muvofiq.

Ko'rib turganimizdek YaIM, investitsiyalar, tashqi savdo aylanmasida bo'lgan o'sish sur'atlari 2019-yilgacha o'sib kelgan, ammo undan so'ng tushish bo'lganini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, O'zbekistonning eng katta sohalaridan biri hisoblangan turizm sohasi, aniqrog'i, turistlar oqimi sonida eng yuqori kamayish ko'rsatkichini ko'rishimiz mumkin, bunda 2019-yilda 8,279 ming kishi O'zbekistonga tashrif buyurgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqamlar 1,504 ming kishini ko'rsatmoqda.

Pandemiya davridagi O'zbekistonning asosiy makroko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar/Yillar	2018	2019	2020	2021
YaIM (trln. so'm)	406.65	510.117	580.232	734.587
YaIM o'sishi, %	105.4	105.8	101.6	107.4
Investitsiyalar (trln. so'm)	107.333	189.9	202	245
Investitsiya o'sishi, %	118.1	133.9	91.8	105.2
Tashqi savdo aylanmasi o'sishi (mlrd. dollar)	33.809	42.2	36.256	42.071
Tashqi savdo aylanmasi o'sishi, %	127.3	126.2	86.9	116
Turistik oqim (mln. kishi)	6.433	8.279	1.504	1.881

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalangan holda shakllantirilgan [18].

Hozirgi vaziyatda hukumat moliyaviy bozor infratuzilmasi va uning me'yoriy-huquq bazasini to'g'ri baholay olib, kelgusi pandemiyalarda samarali qarorlar chiqqargan holda qarshi turishga tayyorgarlikni boshlashi zarur. Bunda yuqorida sanab o'tilgan asosiy ikki faktor orqali o'tgan davr tahllilaridan xulosa qilib, takomillashtirish uchun zarur bo'lgan sohalarni aniqlashtirib olish lozim.

Birinchi, moliyaviy bozor infratuzilmasini baholash, jumladan, savdo shahobchalari, kichik va o'rta biznes egalari, hisob-kitob tizimlari va boshqa bozorni nazorat qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Ushbu infratuzilmalar mustahkamligi va ishonchliligi inqirozlar davrida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari hozirgi raqamlı texnologiyalar rivojlangan zamonda ushbu moliyaviy sektorlarning IT texnologiyalar bilan integratsiyasini ta'minlagan holda operatsion samaradorlik, qamrov kengligi va muhimi, barqarorlikni ta'minlashimiz mumkin.

Ikkinchi, normativ-huquqiy bazani baholash, barcha inqirozlar davrida davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning yana bir yo'li, unga bo'lgan tashqi va ichki ishonchning mustahkamligidir. Bu orqali investorlarni himoya qilish muhim rol o'ynaydi. Bu pandemiya davridagi risklarni kamaytirish, bozor yaxlitligini saqlash uchun kapital talablarini bajarish, favqulodda vaziyatlarda likvidlikni to'g'ri baholay olishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari nazorat qiluvchi organlar bozor o'zgarishini kuzatishlari va unda bo'ladigan xavf-xatar, kamchiliklarining oldini olish uchun o'z vaqtida aralashuvni amalga oshirishlari uchun hushyor bo'lmoqliklari zarurdir.

Bilamizki, vaqt o'tishi bilan turli sabablarga ko'ra oldingilaridan farqli ravishda yangi ko'rinishdagi muammolar paydo bo'lishi mumkin. Buni keltirib chiqarishning asosiy sabablari tashqi ta'sirlar hisoblanib, bular iqlim o'zgarishlari, xalqaro moliyaviy ta'sirlar, siyosiy o'zgarishlar, geografik ta'sirlar, bozordagi noaniqliklar, pandemiyalar bo'lishi mumkin. Bu ko'rinishdagi o'zgarishlar bizning kelajakdagisi voqealarga oldindan

tayyorgarlik, rejalar qilishimizni qiyinlashtirishi tabiiy hol. Ammo bunday rivojlanayotgan muam-molarga javoban moliyaviy bozorlarda ham ularga qarshi kurashish bo'yicha ma'lum tendensiyalar rivojlanib bormoqda. Ushbu tendensiyalarga misol keltirib, sun'iy intellekt texnologiyalarini moliya sektoriga qo'llashni olishimiz mumkin, bunda sun'iy intellekt o'zidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda tahlil qilishi va katta ma'lumotlar bilan yuqori tezlikda ishlay olishi muam-molarga yechimlarni topishda asqotadi.

Xulosa va takliflar. COVID-19 pandemiya-sidan so'ng dunyo moliya bozori 2020-yilning oxirgi choragidan boshlab sekin o'zining holatiga qaytdi, ammo bu davrdagi yo'qotishlarni tiklash uzoq muddat talab qiladi. Qolaversa, bu pandemiyadan so'ng bir qator mamlakatlar o'z iqtisodiy sektorlarida jiddiy muammolar borligini anglashdi. Lekin bu inqirozlarga boshqa faktorlar ham ta'siri bo'lish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Xususan, daromad manbayining katta qismini turizm sohasi tashkil qiladigan mamlakatlar. Pandemiya davrida mamlakat hududlariga kirish va chiqishlarga cheklovlar sababli bu soha jiddiy zararlarga kirdi. Bunga misol qilib, Turkiya, Misr, Eron kabi Sharqiy Osiyo mamlakatlarining o'zi 2020-yil aprel holatida 40 milliard AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgani haqida ma'lum qildi, bunga qo'shimcha ravishda esa aviakompaniyalar 14 milliard AQSh dollari miqdorida zarar ko'rganlari haqida aytди.

Ushbu pandemiyalardan so'ng ko'rilgan zarar va kamchiliklarni tahlil qilgan holda aniq-lashimiz mumkinki, mamlakat uchun favqulodda vaziyatlar davomida quyidagi siyosatlariga alohi-da urg'u qaratishi lozim:

- ishonchli moliyaviy manbalari va kuchli zaxiraga ega bo'lish. Har qanday favqulodda vaziyatlarda ko'pchilik tahlikaga tushadi va kishilar o'z risklarini hisobga olgan holda o'z pul mablag'larini o'zgartirishadi. Shu tufayli pandemiya

davrida sog'liqni saqlash, aholini qiyin vaziyatlar-da qo'llab-quvvatlash uchun bu eng asosiy rol o'ynaydi;

- tezkorlik, pandemiya davrida juda tig'iz vaqt hisoblanib, uning birinchi kundanoq ko'p sohalarda shok holatlariiga duch kelishimiz mumkin. Bunda tezkor va aniq moliyaviy qarorlar chiqarish juda muhim;

- davlatning siyosiy-ijtimoiy va moliyaviy qarorlari uyg'unlashuvi. Pandemiya davrida bar-cha sohalar qiyinchiliklarga yuz kelishini hisobga olsak, bu ikki turdag'i qarorlar uyg'unlashuvi zarurligini ko'rishimiz mumkin. Bunda mamlakat o'z chegara siyosatini virus tarqalishining oldini olish uchun yuritsa, buning ta'siri ishlab chiqarish sohasiga seziladi. Bu ikkisini muvozanat holatida ushslash uchun ham moliyaviy qarorlar chiqar-yotganda davlat siyosatining hissasi katta. Qo'shimcha qilgan holda shuni aytish mumkinki, ilmiy-izlanishlarga mablag'lar jalb qilish, tashqi savdo aloqalarini barqaror ushslash, kuchsizlash-gan bozor ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashda ushbu siyosat muhim rol o'ynaydi.

Tarixdan shunisi ma'lumki, har qanday kutilmaganda kelgan hodisalarining natijalari juda

yomon natijalar va noaniqliklarga olib keladi, shuningdek, pandemiyalar ham. Jamiyat farovonligini ta'minlashda eng muhim rol o'ynaydigan iqtisodiy sektor esa bunday favqulodda vaziyat-larga tayyor turishi va uning risklarini kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rgan bo'lishi lozim. Bunda tarixda yuz bergan pandemiyalar tahlili, o'sha davrda qilingan kamchiliklar o'rganilib, tayyor-garlik ko'rish lozim. Bunda iqtisodiyotning har bir bo'g'ini o'rganilib, undagi kamchiliklar bartaraf etilishi, iqtisodiy uzilish keltirib chiqarishi yoki risklarni oshirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar bartaraf etilishi lozim. Qolaversa, zamon talabiga muvofiq moliyaviy institutlarga raqamli texnologiyalar integratsiyalashuviga alohida urg'u qaratilishi lozim.

Shuningdek, bozorning doimo harakatda bo'lishini ta'minlovchi investorlar va uning boshqa ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni mustahkamlash mamlakatning moliyaviy bozorlari chidamliligi va moslashuvchanligini oshiradi. Natijada innova-tion g'oyalar va kuchli strategiyalar orqali davlat, jamiyat va bozor ishtirokchilari birdekk manfaat-dor bo'ladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Meadows A.J., Stephenson N., Madhav N.K., et al. "Historical trends demonstrate a pattern of increasingly frequent and severe spillover events of high consequence zoonotic viruses". *BMJ Global Health*. 2023; 8:e012026. <https://gh.bmjjournals.org/content/8/11/e012026>
2. Clary Estes. "The next pandemic may be closer than we think, finds new study". *Bio News*. January 2024. <https://bio.news/biosecurity/the-next-pandemic-ginkgo-bioworks-zoonotic-spillover-study/>
3. World Economic Forum: Davos Annual Meeting 2022 - Preparing for the Next Pandemic. <https://weforum.org/events/world-economic-forum-annual-meeting-2022/sessions/preparing-for-the-next-pandemic-efec19c283/>
4. Arpan Rai. The Independent "World Leaders to meet to discuss threat of hypothetical "Disease X" pandemic in Davos". January 2024. <https://www.independent.co.uk/news/world/europe/next-pandemic-disease-x-b2479196.html>
5. Statista. Share of Gross domestic product(GDP) lost as a result of the coronavirus pandemic (COVID-19) in 2020, by economy. <https://www.statista.com/statistics/1240594/gdp-loss-covid-19-economy/>
6. Malthus T.R. (1798). An essay on the principle of population as it affects the future improvement of society, with remarks on the speculations of Mr. Godwin, M. Condorcet, and other writers. J. Johnson in St. Paul's churchyard, London.
7. Schumpeter J.A. (1954) History of economic analysis. Oxford University Press, New York.
8. Bleakley H. (2010) Health, human capital, and development. *Ann Rev Econ* 2(1):283-310.
9. Karlsson M., Nilsson T., Pichler S. (2014). The impact of the 1918. Spanish fu epidemic on economic performance in Sweden: an investigation into the consequences of an extraordinary mortality shock. *J Health Econ* 36:1-19.
10. McKibbin W., Fernando R. 2020. The global macroeconomic impacts of COVID-19: seven scenarios. In: CAMA Working Papers. Centre for Applied Macroeconomic Analysis, Canberra.
11. "G-Cubed" model documentation: https://documentation.gcubed.com/model/sym/model_2R_170logv7.html
12. McKibbin W., Triggs A., 2018. Modeling the G20, Centre for Applied Macroeconomic Analysis, Canberra.
13. Northeastern Global News. <https://news.northeastern.edu/2023/11/16/next-pandemic-economic-model/>
14. Gita Gopinath. International Monetary Fund Blog, "The great lockdown: Worst Economic Downturn Since the Great Depression", April 2020. <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2020/04/14/blog-weo-the-great-lockdown-worst-economic-downturn-since-the-great-depression>
15. Panchal N., Kamal R., Orgera K., Cox C., Garfield R., Hamel L., et al. The Implications of COVID-19 for Mental Health and Substance Use. Kaiser Family Foundation (2020). P. 21.
16. Jahon savdo tashkiloti (WTO) statistikasi. https://stats.wto.org/dashboard/merchandise_en.html
17. Congressional Research Service. Global Economic Effects of Covid-19 (Nov 10, 2021). p. 40. <https://sgp.fas.org/crs/row/R46270.pdf>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentiligi. <https://stat.uz/uz/>